O‘zbekiston respublika valyuta birjasida undiriladigan vositachilik mukofoti (yig‘imlar) miqdori

O‘zbekiston respublika valyuta birjasida undiriladigan vositachilik mukofoti (yig‘imlar) miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston respublika valyuta birjasida vositachilik mukofoti (yig‘imlar)ni undirish tartibi”ga muvofiq quyidagicha belgilangan:

1.Chet el valyutasi operatsiyalari bo‘yicha vositachilik mukofoti:

1.1. Valyuta operatsiyalari bo‘yicha vositachilik mukofoti dilerlar tomonidan tanlangan quyidagi tarif rejalaridan biriga muvofiq undiriladi:

Instrument nomi	Tarif rejasi	Vositachilik mukofotining doimiy qismi (belgilangan aniq to‘lov)	Vositachilik mukofotining aylanma qismi (bitim hajmidan undiriladi)
USD/SUM_TOD, USD/SUM_TOM	USD_SP_0	0,00	0,04%
	USD_SP_40	40 BHM*	0,03%
	USD_SP_120	120 BHM*	0,02%
EUR/SUM_TOD, EUR/SUM_TOM	EUR_SP_0	0,00	0,025%
RUB/SUM_TOD, RUB//SUM_TOM	RUB _SP_0	0,00	0,025%
CNY/SUM_TOD, CNY/SUM_TOM	CNY_SP_0	0,00	0,025%

* *BHM – bazaviy hisoblash miqdori.*

1.2. Valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda har bir dilerlardan svop bitimi tuzilayotganda bitim summasidan 0,0008% miqdorida vositachilik mukofoti undiriladi.

2. Davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalar bo‘yicha vositachilik mukofoti

2.1. Markaziy bankning obligatsiyalari bilan bitimlar bo‘yicha vositachilik mukofoti Dilerlardan auksionda tuzilgan har bir bitim summasining 0,0012 foizi va ikkilamchi savdolarda Dilerlar tomonidan tuzilgan har bir bitim summasining 0,0075 foizi miqdorida undiriladi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan davlat qimmatli qog‘ozlari (DQQ) bilan savdo-kliring tizimida o‘tkaziladigan auksionlardagi operatsiyalar uchun vositachilik mukofoti quyidagi jadvalga muvofiq Dilerlar tomonidan tanlangan tarif rejasiga muvofiq undiriladi:

Tarif rejasi nomi	O‘zRVBning auksiondagi vositachilik mukofoti			Tarif rejasi bo‘yicha qo‘shimcha opsiya***	
	Vositachilik mukofoti-ning doimiy qismi (belgilangan aniq to‘lov) kalendar oy uchun*	O‘zRVBning bitimning aylanma qismidan olinadigan vositachi-lik mukofoti-ning bazaviy stavkasi	O‘zRVBning bitimning aylanma qismidan pasayuvchi vositachi-lik mukofoti stavkasi**	DQQ ikkilamchi bozoridagi minimal umumiy hajm (mlrd. so‘m)	DQQ va yoki MBO bilan dilerlararo REPO bozoridagi minimal umumiy hajm (mlrd. so‘m)
GCB_AUC_BASIC	0	0,0012%	0,00060%	750,0	4 000,0
GCB_AUC_PRO	1,1 BHM	0,0009%	0,00045%	850,0	6 000,0
GCB_AUC_MAX	2,5 BHM	0,0007%	0,00035%	1 000,0	8 000,0

** O‘zbekiston Respublikasida to‘lov kunidagi bazaviy hisoblash miqdori (BHM);*

*** tarif rejasi bo‘yicha qo‘shimcha opsiyalarda belgilangan hajmlarga yetganda qo‘llaniladi;*

**** joriy kalendar oyida Dilerlar tomonidan qo‘shimcha opsiyada belgilangan hajmlarga erishilganda, O‘zRVB keyingi kalendar oy mobaynida pasayuvchi stavka bo‘yicha vositachilik mukofotini undiradi;*

joriy kalendar oyida Dilerlar tomonidan qo‘shimcha opsiyada belgilangan hajmlarga erishilmagan taqdirda, O‘zRVB keyingi kalendar oy mobaynida bazaviy stavka bo‘yicha vositachilik mukofotini undiradi.

2.3. Ikkilamchi savdolarda DQQni sotib olishda vositachilik mukofoti har bir Dilerdan quyidagi tartibda undiriladi:

a) so‘ndirish muddatiga qadar (SDP) 200 kungacha bo‘lgan DQQ oldi-sotdisi bo‘yicha bitimni tuzishda quyidagi formula bo‘yicha:

0,0000375% x SDP x bitim summasi, biroq 0,0075%dan ortiq bo‘lmagan;

b) so‘ndirish muddatiga qadar 200 kun va undan ortiq bo‘lgan DQQ oldi-sotdisi bo‘yicha bitim amalga oshirilganda – bitim summasidan 0,0075%.

2.4. REPO operatsiyalari bo‘yicha vositachilik mukofoti dastlabki sotuvchidan va dastlabki xaridordan REPO operatsiyasining birinchi qismi amalga oshirilgan kuni har bir bitim summasining 0,0008% miqdorida undiriladi.

3. Banklararo pul bozoridagi bitimlar, Markaziy bankning tijorat banklari bilan depozit operatsiyalari va valyuta garovi asosida kredit auksionlari bo‘yicha vositachilik mukofoti

3.1. Banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha vositachilik mukofoti har bir Dilerdan har bir tuzilgan bitim summasining 0,000896% miqdorida (shu jumladan, vositachilik mukofoti miqdori 0,00080% va QQS miqdori – 0,000096%) undiriladi.

3.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga muvofiq, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari bilan tuzilgan banklararo pul bozoridagi bitimlar bo‘yicha vositachilik mukofoti undirilmaydi.

3.3. Markaziy bankning tijorat banklari bilan depozit operatsiyalari bo‘yicha vositachilik mukofoti dilerlardan har bir tuzilgan bitim summasining 0,000896% miqdorida (shu jumladan, vositachilik mukofoti miqdori 0,00080% va QQS miqdori – 0,000096%) undiriladi.

3.4. Markaziy bankning tijorat banklari bilan valyuta garovi asosida kredit auksionlari bo‘yicha vositachilik mukofoti har bir dilerdan tuzilgan har bir bitim summasining 0,000896% miqdorida (shundan, vositachilik mukofoti miqdori 0,00080% va QQS miqdori 0,000096%) undiriladi.

4. Hosilaviy moliya instrumentlar bilan operatsiyalar bo‘yicha vositachilik mukofoti

4.1. Valyutaviy fyuchers shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar uchun vositachilik mukofoti har bir Dilerdan bitim summasining 0,001% miqdorida undiriladi.